

NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” ASARIDA QO‘LLANGAN TOPONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Sobirova Shahzoda Faxriddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
doktoranti

Annotatsiya Ushbu maqolada so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyning “Xamsa” asari tarkibiga kiruvchi “Hayrat ul-abror” dostonida qo‘llangan toponimlarning leksik-semantik xususiyatlari to‘g‘risida bahs yuritilgan. Shuningdek, maqolada eski o‘zbek adabiy tili davri leksikasining ot so‘z turkumi doirasidagi makon semasini bildiruvchi atoqli va turdosh otlar o‘ziga xos tadqiq etilgan. Maqolada, aynan, dostonida keltirilgan toponimlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar. Toponimika, eski o‘zbek adabiy tili, makrotoponimlar, mikrotoponimlar, atoqli otlar, turdosh otlar, toponimik maydon, makon semasi, talmeh, leksik-semantik xususiyat.

ABSTRACT This article discusses the lexico-semantic features of the toponyms used in the saga "Hayrat ul-abror", which is part of the work "Khamasa" by the Sultan of the Word Mulk Alisher Navoi. The article also examines the nouns and related nouns that denote the spatial scheme within the noun category of the vocabulary of the old Uzbek literary period. The article seeks to reveal the toponyms and their specific features mentioned in the saga.

Keywords. Toponymy, Old Uzbek literary language, macrotoponyms, microtoponyms, nouns, related nouns, toponymic field, space scheme, talmeh, lexic-semantic feature.

KIRISH

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” leksikasi turli-tuman semantik maydongan mansub so‘zlar tizimidan iborat. Asar leksikasining asosiy qismini shaxs va shaxs faoliyati bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi, maishiy tushunchalar bilan bog‘liq, ijtimoiy-siyosiy tushuncha bildiruvchi semantik maydon so‘zlari tashkil qiladi. Bundan tashqari, dostonida toponimlarning ham naqadar nafosat bilan qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz.

“Hayrat ul-abror” dostoni leksikasini semantik maydon tasnifi asosida o‘rganish asar leksikasida qo‘llangan so‘zlarning o‘zaro nisbatini belgilashda, asar voqeligini yorituvchi asosiy leksik birliklarni ajratishda, leksik birliklar o‘rtasidagi mazmuniy aloqadorlikni yoritishda, leksik birliklarning semantik mundarijasini, semalar tarkibini tahlil qilishda, leksik birliklar semantik tarkibidagi o‘zgarishlarni kuzatishda ahamiyatlidir. Ijtimoiy hayotning barcha sohalariga oid tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning qo‘llanishi asar leksikasining qomusiyiligini ta’minlagan. Semantik

maydonga ajratib izohlashda soʻzlarning maʼno mundarijasi namoyon boʻladi. Muayyan soʻzda bir necha semantik maydon xususiyatlari mujassamlangan. Asarda qoʻllangan makon bildiruvchi soʻzlarning izohi bilan quyida tanishib chiqamiz. Xoʻsh, toponimika deganda biz nimani tushunamiz ?

[“Toponim” yunoncha soʻz boʻlib, “topos” - “joy, oʻrin”, “onuma” - “nom” degan maʼnolarni anglatadi.]²⁶ Demak, toponim – oʻrin-joy nomlaridir. Ular Yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan tabiiy geografik va sunʼiy (inson yaratgan) obyektlarning atoqli otlari hisoblanadi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui - toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. Oʻzbek tilidagi makrosistemalardan birini toponimlar tashkil qiladi. Toponimlar ham til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma soʻzlar singari til qonunlariga boʻysunadi, lekin oʻzining paydo boʻlishi va baʼzi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va maʼnaviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlaridan aloqador boʻlib, maʼlum darajada boshqa guruh soʻzlardan farq qiladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizda xos boʻlgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlari va xususiyatlari koʻproq saqlangan boʻladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Toponimlar yirik yoki kichik obyektlarning nomlari ekanligiga qarab makrotoponimlar va mikrotoponimlarga ajratiladi:

Makrotoponimlar - keng hududlar, katta obyektlar (materiklar, okeanlar, togʻlar, choʻllar, daryolar, shaharlar, qishloqlar va shu kabi) ning atoqli otlari;

Mikrotoponimlar- kichik obyektlar (jarliklar, tepaliklar, quduqlar, koʻchalar, qoʻrgʻonlar va shu kabi) ning atoqli otlari;

Toponimlar tarix, geografiya, etnografiya bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, ular oʻzida tarixiy haqiqatni, madaniyatni, qadimgi urf-odatlarini, hozirgi baʼzi geografik muammolarning yechimini tashiydi.

Toponimlar haqidagi ilmiy tadqiqotlarda, oddiylikdan murakkablik sari borish kuzatiladi. Masalan, qadimgi davrdan to XIX asrgacha toponimlar xalqona fikrlar bilan talqin etilgan boʻlsa, XX asrdan boshlab, xususan, shu asrning oxiri va XXI asrning boshlari, yaʼni, soʻnggi 40-45 yil ichida ingliz, rus, oʻzbek va boshqa bir qator xalqlarning olimlari tomonidan toponimlar haqidagi bilimlar jamlanib, umumlashtirilib, Toponimika nomli fan sohasining nazariy, ilmiy va amaliy asoslari ishlab chiqildi va bu sohada bir qancha tadqiqotlar maydonga keldi. Bunda ingliz olimlaridan I. Raven, Jr. McDavid, M. Kaups, George R. Stewart, Adrian Room va boshqalar hamda rus olimlaridan V. A. Nikonov, A. V. Superanskaya, A. P. Dulzon, E. M. Murzayev, V. N. Toporov, O. N. Trubachev va oʻzbek olimlaridan E. Begmatov, Z. Doʻsimov, S.Qorayev, Q.A.Abdumurotov, T.Nafasov kabi olimlarning xizmatlari katta.²⁷

NATIJARLAR VA MUHOKAMALAR

²⁶ Nafasov T. Oʻzbek tili toponimlarining oʻquv izohli lugʻati. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2007. 4-bet

²⁷ Najeebullah Esmati. Toponimlarning lugʻaviy-maʼnaviy tasnifi. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 4 | 2023 ISSN: 2181-1385 ISI: 0,967 | Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,9 | ASI: 1,3 | SJIF: 5,771 | UIF: 6,1

Toponimlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar bizgacha aynan adabiy yodgorliklar orqali yetib kelgan va adabiy asarlarda ular keng qo'llanilgan.

Jumladan, mumtoz adabiyotimiz vakillarining asarlarida ham toponimlarning qo'llanilish ko'lami nihoyatda keng. Birgina Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonini olaylik. Unda makro va mikrotoponimlarning keng qo'llanilganiga guvoh bo'lamiz.

Masalan, : Chin, Hindiston, Xitoy, Shom, Hirot, Hari, Misr, Iroq, Arab kabi mamlakat nomlari va bu mamlakat nomlarining turli xil variantlari ham keltirilgan bo'lib, ular hozirgi kunda tilshunosligimizning makrotoponimlari sistemasiga kiruvchi birlik sifatida qaraladi. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Ochti gulshanniki rangin erur,

*Har gul anga oyinai **Chin** erur. (7-Tom, 11-bet).*

Nazmi savodi ar o har doston,

*O'ylaki, bir kishvari **Hindiston**. (32-bet).*

Bor edi volig'a bir andoq o 'gul,

*Kim angayuz **Misr** shahi erdi. (148-bet).*

*Xattinga bosh qo 'ydi **Ajani to Arab***

Tutmasang ilgisiga qalam ne ajab. (24-bet).

"Hayratul-abror" dostonida Xitoy, Hirot kabi joy nomlari Xito, Hiri kabi variantlarda ham qo'llanganligining guvohi bo'lamiz.

Tilida yor erdiyu so 'zida yor,

*Balki **Xito** mulkida xonlar asir. (228-bet).*

Shom, Hiri, Hari, Shom

Gar vataning Shom durur, gar Hari

Shomu Hiri fikrga qilmas gari. (221-bet).

Toponimlar makroko'lamiga ko'ra 11 ga bo'linadi. Bular oykonim, komonim, urbanonim, agroonim, nekronim, terronim, regionim, dromonim, xoronim, drimonim, insulonim guruhlaridir.

"Hayrat ul-abror" dostonida ham shahar va shaharchalarning nomini ifodalovchi birliklar ko'p uchraydi. O'zbek toponimlari makroko'lamiga quyidagilar kiradi:

Oykonimlar. Bu mikroko'lam shaharlar, shaharchalar (posyolka), qishloqlar, ovullar va mana shu tipdagi obyektlarning atoqli otlarini o'z ichiga oladi. Onomastikada shahar va qishloq, ovullarni o'zaro farqlash uchun shahar va shaharchalar - astionim (yun. ayasteios - shaharga xos + onoma - atoqli ot), qishloq va mana shu tipdagi aholi yashovchi maskanlar - kocmonim (yun. komos - qishloq + onoma - atoqli ot) deb yuritiladi.

Makka

*Xojag'a chun **Makka** sori bo'ldi azm,*

Xoja Abu Nasr dog'i bo'ldi jazm. (7-Tom, 249-bet.)

Ajam

*Xattinga bosh qo 'ydi **Ajam** to Arab*

Tutmasang ilgisiga qalam ne ajab. (7-Tom, 24-bet.)

Samarqand

Misr-u Samarqand ne monand anga,

Zimnida yuz Misru anga. 7-Tom, 236-bet.

Urbanonimlar. Shahar hududi ichida joylashgan har qanday topografik obyektlar atoqli oti urbanonim mikroko‘lamiga kiradi. Ba’zi tadqiqotlarda urbanonimlar “shahar toponimiyasi” deb ham yuritiladi. “Hayrat ul-abror” dostonida ham shahar va shaharchalarning nomini ifodalovchi birliklar ko‘p uchraydi.

Shahar nomlari:

Turki Xo‘tan

Turki Xo‘tan topti chu zebo jamol,

Mushkfishon bo‘ldi nasimi shamol. 7-Tom, 58-bet.

Hijoz

Mustaa‘sim-fillax etib ko‘p niyoz,

Ka‘bag‘a ul navki ahli Hijoz. 7-Tom, 174-bet.

Bog‘dod

Soqiy, olib kel mayi yoqutrang,

Kuy xati Bog‘dodgacha. bedarang. 7-Tom, 174-bet.

Xorazm, Adoq

Yuz, iki yuzcha kishi birla qazoq,

Gah yeri Xorazm edi, gah Adoq. 7-Tom, 94-bet.

Hiro

Ulki ani qibla der ahli Hiro,

Dema, Hiro ahli bari koinot. 7-Tom, 104-bet.

Badaxshon, Kirmon

Ham yiborur la‘l Badaxshon sari,

Ham keturur zirani Kirmon sari. 7-Tom, 107-bet.

Xiyobon, Musallo, Maydon

Qilsa guzar ko‘y-u Xiyobon son,

O‘tsa Musallo bila Maydon sari. 7-Tom, 145-bet.

Ka‘ba

Dedikim: Ey Arsh matofing sening,

Ka‘ba qilib azmi tavofing sening. 7-Tom, 86-bet.

XULOSA

“Hayrat ul-abror” leksikasining o‘ziga xosligi unda turkiy, arabcha, forschatojikcha o‘zlashmalarning semantik, funksional-stilistik xususiyatlari aks etgani ekanligidir hamda muallifning so‘zlarni qiyoslash, so‘z etimologiyasi, imlosi, tahliliga doir mulohazalari ifodalangani, eski o‘zbek tiliga oid bir qator manbalarda kuzatilmaydigan arxaik birliklar va muallif mahorati bilan belgilanuvchi okkazonalizmlar qo‘llangani bilan belgilanadi.

“Hayrat ul-abror” leksikasi tarixiy-etimologik jihatdan o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlamdan iborat. [Turkiy so‘zlar XV-XVI asrlar eski o‘zbek adabiy tili lug‘at boyligining asosini tashkil etgan. Asar leksikasining o‘z qatlamini XV-XVI asrlar eski o‘zbek adabiy tili leksikasida faol qo‘llangan so‘zlar tashkil etadi.]²⁸ Asardagi turkiy so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanish darajasi va semantik xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Turkiy leksik birliklarning asosiy qismi hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadi.

“Hayrat ul-abror”da eski o‘zbek tili davriga xos o‘zlashmalar faol qo‘llangan. Forscha-tojikcha, arabcha so‘zlarni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga qiyoslash natijasida leksik birliklar semantikasida o‘zgarishlar yuz bergani kuzatiladi. Asar leksikasidagi o‘zlashmalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadigan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydigan so‘zlardan iborat.

“Hayrat ul-abror”da eski o‘zbek tili davriga xos makon semasini ifodalovchi birliklar ham anchagina ekanligi fikrimizning isbotidir.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. E.I.Fozilov tahriri ostida. I tom Toshkent. 1983 -656 s; II tom. Toshkent, 1983. -642 s; III tom. Toshkent, 1984. -622 s; IV tom. 1985. -634

2. Najeebullah Esmati. Toponimlarning lug‘aviy-ma’naviy tasnifi. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 4 | 2023 ISSN: 2181-1385 ISI: 0,967 | Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,9 | ASI: 1,3 | SJIF: 5,771 | UIF: 6,1

3. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti.1979.-213 b.

4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (arab so‘zlari va ular bilan hosilalar). Toshkent: Universitet, 2003. -599 b.

5. Abdulxayirov M. Navoiy asarlarida so‘z va iboralar.-Toshkent: Tafakkur bo‘stoni,2009.-240 b.

6. Nafasov T. O‘zbek tili toponomlarining o‘quv izohli lug‘ati.Toshkent. Yangi asr avlodi.2007.

²⁸ Abdulxayirov M. Navoiy asarlarida so‘z va iboralar.-Toshkent: Tafakkur bo‘stoni,2009.-240 b.